5. Yoshlar bilan ishlash bo'limi tyutorlari: Z.Yuldasheva, X.Xudayberdiyeva, B.Turayev, M.Salomova, N.Elmurodov, N.Boboyorova va J.Bozorov

**Kun tartibi:**

**"Tyutorlar faoliyatining samaradorligini oshirish" haqida**

Kun tartibidagi masala yuzasidan so'zga chiqqan fakultet dekani Sh.Nashirova fakultetda faoliyat olib borayotgan Yoshlar bilan ishlash bo'lim tyutorlarining faoliyati o'z fikrlarini bildirib o'tdi. Jumladan, fakultetda o'z faoliyatini olib borayotgan ba'zi tyutorlar B.Turayev, Z.Yuldasheva, X.Xudayberdiyevalarning ish faoliyatlari qoniqarli ekanligi, guruh talabalari bilan ishlashi, fakultetning boshqa jamoat ishlarida mas'uliyat bilan faol bo'layotganliklari, qolgan tyutorlarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan fazilatlar ayrim holatlarda kuzatilmayotganligi, yangi o'quv yilida ham shunaqa holat davom etadigan bo'lsa, fakultet tyutorlari faoliyati yuzasidan universitet rektori nomiga bildirishnoma berishini ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birga, Sh.Nashirova tyutorlarning asosiy vazifasi talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda TTJda va ijara xonadonlarida yashovchi talabalar ahvolidan doimiy xabardor bo'lishi, talabalarning muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanish ekanligini eslatib o'tdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i N.Pardaqulov so'zga chiqib, Xorijiy tillar fakultetida faoliyat olib borayotgan bo'lim tyutorlari haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirib, jumladan, ijro intizomiga qat'iy rioya qilishlari, ish vaqtida ish joylarida bo'lishlari, o'ziga biriktirilgan guruh talabalari bilan bo'layotgan har bir holatdan fakultet dekanatini va bo'limni xabardor qilib borishlari, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli bajarishlari zarur ekanligini eslatib o'tdi va shu bilan birga lekin tyutorlar orasida o'z xizmat vazifasini suiste'mol qilib, berilgan topshiriqlarga befarqlik bilan qarayotgan tyutorlar ham uchrab

turganligini ta'kidlab o'tdi. N.Pardaqulov o'z nutqi davomida tyutorlarning savodxonligini tekshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 393, 149, 824-sonli qarorlari hamda o'z sohalariga oid qonunlar, farmonlar, farmoyishlar hamda universitetning "Odob-axloq kodeksi hamda Ichki tartib qoidalari"dagi 3-bob, 10-modda, 4-bob 11,13,15,16,21,27-moddalari haqida tyutorlarga savollar bilan bilan murojaat qilgan paytda tyutor M.Salomova, N.Boboyorova, N.Elmurodov, J.Bozorov, B.Turayevlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarorlar, kodekslar haqida ma'lumotga ega emasliklari ma'lum bo'ldi. N.Pardaqulov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 393, 149, 824-sonli qarorlari, universitetning "Odob-axloq kodeksi hamda Ichki tartib qoidalari"ni mukammal o'rganib chiqish, ayniqsa, 3-bob, 10-modda, 4-bob 11,13,15,16,21,27-moddalari haqida har bir tyutor bilishi shart ekanligini alohida ta'kidlab o'tidi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Axmedov so'zga chiqib, darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari bugunning muhim vazifalaridan biri ekanligini aytib o'tdi. Universitetda korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida professor-o'qituvchilar, tyutorlar va talabalar bilan umumiy va individual suhbatlar, profilaktik tadbirlar muntazam ravishda o'tkazilayotgani haqida bosh mutaxassis Sh.Axmedov tomonidan aytib o'tildi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, yig'ilish

**Qaror qiladi:**

**1.** Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakultet dekani Sh.Nashirova, Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i N.Pardaqulov hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Axmedovlarning kun tartibida qo'yilgan masala yuzasidan bergan axborotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Xorijiy tillar fakultetida faoliyat olib borayotgan Yoshlar bilan ishlash bo'limi tyutorlarining faoliyatini qoniqarli darajaga chiqarish, ularning mehnat samaradorligini yanada oshirish maqsadida, **bir yarim oy** muddatda ularning mehnat faoliyatini tanqidiy-tahliliy o'rganilib, o'z xizmat vazifasiga loqaydlik va sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lgan tyutorlarning ish faoliyati yuzasidan fakultet dekani Sh.Nashirova hamda Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i N.Pardaqulov bilan birgalikda universitet rektori nomiga bildirishnoma kiritish vazifasi yuklatilsin.

**3.** Ushbu qaror ijrosi bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

**Yig'ilish raisi:** **Sh.Nashirova**

**Yig'ilish kotibi:** **X.Muratov**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**
**FIZIKA FAKULTETI 1-BOSQICH TALABALARIGA O’TKAZILGAN "JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT BILAN" DEB NOMLANGAN TADBIR**

# BAYONNOMASI

15.09.2025 Qarshi shahri

| | |
|---|---|
| **Raislik qiluvchi:** | **Qarshi davlat universiteti rektor maslaxatchisi A.R.Jo’rayev** |
| **Qatnashdilar:** | **Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxasisi Sh.A.Axmedov, Profilaktika inspektori M.Jabborov, Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i Sh.Akramov Fizika fakulteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha dekan muovini F.Muqimov, Yoshlar bilan ishlash bo’limi tyutorlari M.Saidov, E.Meyliyev, R.Xudayarov, Fizika fakulteti talabalari (140 nafar)** |

## KUN TARTIBI:



Tadbirni kirish so‘zi bilan Qarshi davlat universiteti ma'naviy -ma'rifiy ishlash bo'limi boshlig'i Sh.Akramov ochib,

Kun tartibidagi masala yuzasidan so‘zga chiqqan rektor maslahatchisi A.Jo‘rayev hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarib, insoniyatning taqdiri va kelajagiga

tahdid solayotgan xavf-xatarlar kuchayib, dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyatlar tobora avj olmoqda.Mana shunday bir sharoitda barqarorlikni saqlashda ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek:"Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni, albatta, yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir..."

Mavzu yuzasidan "Komplaensnazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Ahmedov so'zga chiqib, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qabul qilingan me'yoriyhuquqiy hujjatlar doirasida tizimli ishlar olib borilayotganligi, "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqanligi haqida ma'lumot aytildi. Talabalarning korrupsiyaning zarari haqida xabardor qilish, yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni mustahkamlash va jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi, bundan ko'zlangan maqsad esa jamiyatda adolatli muhitni shakllantirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidladi. Korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish milliy taraqqiyot rivojlanishining asosi ekanligi aytildi. Xususan,talabalarga bugungi kunda Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limining botlari hamda telegram kanallari faoliyat yuritilayotganligi korrupsiya bo'limi bosh mutaxasisssi Sh.Axmedov tomonidan ogohlantirildi. Tadbir davomida talabalar "Korrupsiyaga qarshi kurashish" maxsus o'quv kursida onlayn ro'yxatdan o'tish va o'zlarini korrupsiya bo'yicha qiziqtirgan savollariga javob olishlari bildirildi.



Kun tartibidagi masala yuzasidan Universitet profilaktika inspektori M.Jabborov 1-kursga qabul qilingan talabalarni talabalik baxtiga sazovor bo'lganliklari bilan tabriklab, bugungi kunda O'zbekistonda talaba yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar, jinoyatchiliklar va ularni oldini olish dolzarb muammolardan biriga aylandi. Xususan talaba yoshlar o'rtasida qasddan badanga tan jarohat yetkazish, talonchilik, tovlamachilik, bosqinchilik, o'g'irlik, firibgarlik hamda kiberjinoyatlar kabi huquqbuzarliklar sodir etilishi davom etib kelmoqda. So'nggi vaqtlarda talaba yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va

jinoyatchiliklarning aksariyati qo'l telefoni orqali yuzaga kelmoqda, ayniqsa talaba qizlarning suratlarini tarqatish bilan qo'rqitib pul talab qilish xolatlari insonni xayratlantiradi. Ota ona esa farzandining bunday qilmishidan bexabar. Mazkur xuquqbuzarlik va jinoyatchiliklarning asl sabablari oson yo'l bilan ko'p pul topishga qaratilgan. Xar qanday huquqbuzarlik va jinoyatchilikning kelib chiqishida ota-ona tamonidan o'z vaqtida berilmagan milliy tarbiyaning natijasidadir.

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlarga vatanni sevish, uni ardoqlash, vatanparvarlik tuyg'ularining kamol topishi, bugungi kundagi ijtimoiy vaziyat, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e'tiborning kuchaytirilganiga qaramay, ular huquqbuzarlik va jinoyat sodir etayotgani achinarli. Talaba yoshlar bilan profilaktik ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy kurashish mexanizmlarini yaratish zarurdir. Shunday ekan, har bir zamon va makonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ota-onalarning, shu jumladan, ta'lim tizimining ham o'rni beqiyosdir.

Tadbir davomida talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazildi, shuningdek, yoshlarni bilib-bilmay jaholat botqog'iga kirib qolishdan asrash, jaholatni faqat ma'rifat bilan yengish mumkinligi, ularga yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklardan samarali foydalanishlari lozimligi e'tirof etildi. Tadbir davomida "Tinchlik qadri" deb nomlangan hujjatli film namoyish etildi.





**YIG'ILISH QAROR QILADI:**

1. Qarshi davlat universiteti rektor maslahatchisi A.Jo'rayevning kun tartibida qo'yilgan masalalar yuzasidan bergan axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Suhbatda yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash, talaba yoshlarni o'z qarashlari bilan tanishtirsin va bu qarashlar bugungi kunda inson kapitalini shakllantirish borasidagi ishlar uchun dastur sifatida o'rganilsin.

3. Ushbu yig'ilish qarori bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Yig'ilish raisi:** A.R.Jo'rayev

**Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari:** F.Muqimov

**Qarshi davlat universiteti Matematika va kompyuter ilmlari fakulteti talabalari o‘rtasida “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Kebirxavfsizlikka qarshi kurash”, Psixofaol va psixotrop moddalarga qarshi kurash”, Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzularida o‘tkazilgan profilaktik targ‘ibot tadbirining**

**BAYONNOMASI**

**Qarshi shahri** **16.09.2025-yil**

**Raislik qiluvchi:** Matematika va kompyuter ilmlari fakulteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha dekan o`rinbosari A.Jo`rayev

**Taklif etilganlar:** Qarshi davlat universiteti rektor maslahatchisi A.Jo’rayev, Ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i Sh.Akramov, universitet profilaktika inspektori M.Jabborov, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi Sh.Axmedov

**Ishtirok etdilar:** Yoshlar bilan ishlash bo’limi tyutori O.Kiyamov va fakultet talaba-yoshlari. Jami: 138 nafar

**KUN TARTIBI:**

**1. “Jaholatga qarshi ma’rifat” “Kebirxavfsizlikka qarshi kurash”, Psixofaol va psixotrop moddalarga qarshi kurash”, Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi” mavzusida profilaktik targ‘ibot tadbirini o`tkazish to‘g‘risida.**

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig’ilish raisi Matematika va kompyuter ilmlari fakulteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha dekan o`rinbosari A.Jo`rayev so‘zga chiqib, tadbir mehmonlarini yig’ilganlarga tanishtirib, mavzu yuzasidan qisqacha ma’lumot berdi. Hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarib, insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar kuchayib, dunyo



miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyatlar keskin holatda ekanligi insoniyatning ma’naviy dunyoqarashiga o’z ta’sirini o’tkazishga bo’lgan harakatlar ham kuchayayotganini ta’kidladi. Mana shunday bir sharoitda barqarorlikni saqlashda ma’naviyat va ma’rifatga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni,

albatta, yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir..."

**So`zga chiqdi. Qarshi davlat universiteti rektor maslahatchisi A.Jo'rayev:** Bugungi kunda butun dunyo mamlakatlari Globallashuv deya ta'riflanuvchi o'ta shiddatli bir jarayon girdobida ekanligi va bu jarayon har bir millat va jamiyat fuqarolari ongu-shuuriga turli xil g'oyalarning tarqalishi orqali ta'sir etayotgani, hattoki oddiygina bir kichik davlatlar ham bu jarayondan chetda qolmayotganligi agar biz kuchli ma'naviy dunyoqarashga va bilim-saviyaga ega bo'lmasak bu g'oyalarning girdobiga tushib qolishimiz mumkinligi hayotiy misollarda o'z tasdig'ini topmoqda. Bugun dunyo xalqlari tomonidan o'rgimchak turi deya ta'riflanayotgan internet tarmog'idan foydalanish madaniyatiga rioya qilmas ekanmiz bu ertangi kelajagimiz xavf ostida ekanligidan dalolat beradi.

2023-yilning 30-aprelida bo'lib o'tgan referendum orqali yangilangan Konstitutsiyamiz xalq xohish irodasi ramzi sifatida qabul qilindi va 2023-yilning 1-may kunidan kuchga kirdi. Yangilangan konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi qat'iy belgilab qo'yilganligi hammamizga ma'lum. Shuningdek yangilangan konstitutsiyaning 54-moddasida Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi deb belgilab qo'yilganligining o'zi ham mamlakatimizda fuqarolarga berilgan keng huquqiy imkoniyatlarning bir belgisidir.




Bundan tashqari mamlakatimizda diniy tashkilotlar faoliyatini qonuniy muofiqlashtirish maqsadida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi 699-sonli O'RQning qabul qilinishi turli din vakillariga nisbatan berilgan huquqiy imkoniyatlarning bir ko'rinishidir. Bugungi kunda yurtimizda 16 ta turli xil diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, barcha din vakillariga yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali Islom mafkurasi va tarixiga zid g'oyalari bilan kishilar ongini zararlashga qaratilgan ta'limotlari keng tarqalmoqda. Ular o'zlarining qo'shtirnoq ostidagi "Diniy ta'limotlari"ni asoslamoqchi bo'lishadi. Buning ortidan Aqidaparastlik va Missionerlik kabi tushunchalar yoshlar ongida shakllanmoqda. Dinning mazmun - mohiyatini chuqur anglab yetmasdan yuqoridagi

kabi turli xil targ'ibot materiallarini o'zlashtirish orqasidan o'zi bilmagan holda jinoyat ko'chasiga kirib ketmoqda.

**So`zga chiqdi. Ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'limi boshlig'i Sh.Akramov.** Shu bois, yoshlar bilan ishlovchi barcha davlat va nodavlat tashkilotlari birgalikda samarali hamkorlik qilib, oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishi lozim. Har qanday jinoyat jamiyat uchun xatarli. Ayniqsa ushbu illatning yoshlar tomonidan sodir etilayotgani yurt ravnaqi va osoyishtaligiga daxldor kishini tashvishga solmay qo'ymaydi. Shu bois, kelajak avlodning taqdiri bilan bog'liq bunday muammolar doimo dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Zero, millatimiz va xalqimiz mentalitetini o'zida namoyon etuvchi buyuk ma'naviyatimizni asrash xalqimiz taqdiri va kelajagi, hayot-mamotimiz vazifasi ekanligini anglash o'ta muhim vazifadir.

Tadbir davomida talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazildi, shuningdek, yoshlarni bilib-bilmay jaholat botqog'iga kirib qolishdan asrash, jaholatni faqat ma'rifat bilan yengish mumkinligi, ularga yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklardan samarali foydalanishlari lozimligi e'tirof etildi.

So'zga **chiqdi: Universitet profilaktika inspektori M.Jabborov.** Xalqlar va millatlar kelajagiga raxna soluvchi ushbu illat yurtimiz yoshlarini ham chetlab o'tgani yo'q. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'p qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan, bor kuch-g'ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o'rganishga sarflashi kerak bo'lgan yoshlarni aldov yo'li bilan ushbu boshi berk ko'chaga kirituvchi shaxslarning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, psixofaol moddalarni "savdo"si Internet tarmoqlariga ko'chishi, uning yanada keng qamrovli "tovar"ga aylanishiga olib keldi.





Inson psixofaol moddalarni iste'mol qilishning og'ir oqibatlarga olib kelishini bilib-bilmay turib bu yo'lga kiradi. "Xo'sh, nima sababdan bunday qilmoqda?" degan savol hammani birdek o'ylantiradi. Jahondagi globallashuv jarayonlari dunyo hamjamiyatida

fan-texnika taraqqiyoti hamda xalqaro iqtisodiy, siyosiy va gumanitar munosabatlarning rivojlanishi uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, turli xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Barchani o'ylantirayotgan psixofaol moddalar nima degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Psixofaol moddalar – markaziy asab tizimiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadigan, muntazam ravishda iste'mol qilganda ruhan va jismonan qaramlikni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik kimyoviy moddalar. Bularga giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar hamda kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari kiradi. Shu bois, yoshlar bilan ishlovchi barcha davlat va nodavlat tashkilotlari birgalikda samarali hamkorlik qilib, psixofaol moddalarga ruju qo'yish illatini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishi lozim. Har qanday jinoyat jamiyat uchun xatarli. Ayniqsa ushbu illatning yoshlar tomonidan sodir etilayotgani yurt ravnaqi va osoyishtaligiga daxldor kishini tashvishga solmay qo'ymaydi. Shu bois, kelajak avlodning taqdiri bilan bog'liq bunday muammolar doimo dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'zga **chiqdi: "Komplayens-nazorat"tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Axmedov.** Bugungi kunda jahon davlatlari iqtisodiyotiga va rivojiga milliardlab zarar keltirayotgan va jamiyatning iqtisodiy jihatdan yemirilishiga sabab bo'layotgan illatlardan biri bu **Korrupsiya** muammosidir. Shunday ekan bu illat negizini tag tomiri bilan quritish, unga qarshi kurashish yo'lida puxta uylangan, stixiyali qonunlar ishlab chiqilmas, chora tadbirlar ko'rilmas va aholi o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlari tashkil etilmas ekan bu illat bartaraf etilmaydi.




**K**orrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. U[illegible] har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha,

barcha millatlar uchun qo‘l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo‘q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o‘zi belgilaydi.

Bugungi kunda ham halollik va poklik masalasiga hayotimizning yaxshilanishi va insoniyligimizning mezoni sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu boradagi ishlar samaradorligini ta’minlashda, turli illatlardan xoli, farovon, odil jamiyatni qurishda eng muhim “richag” - har birimiz o‘zimizni “halollik vaksinasi” bilan emlashimiz kerakligini ta’kidladi. Darhaqiqat, aynan halollik shu vaqtga qadar millatga azob berib kelayotgan dardlarga malhamdir. **Ijtimoiy tarmoqlarda** bot-bot tarqatilayotgan xabarlarga e’tibor bersak, aynan boshqaruvdagi halollik masalasini dolzarbligi namoyon bo‘ladi. Boshqaruvda halollik deganibu adolatli boshqaruvni anglatadi.Prezidentimizning “Halollik vaksina”si bilan emlash deganda aynan boshqaruv jarayoniga e’tibor qaratgani bejiz emas, albatta. Yuragi, qalbi pok va toza, halol luqma yegan va shu yo‘ldan yurgan insonlar hamisha xotirjam bo‘ladi, ko‘ngli ravshan, doimo sihat-salomat yuradi. Xorazmlik qomusiy olim, alloma Mahmud Zamaxshariy bu haqda shunday deb nasihat qiladi: “Halol va va pokiza kishi doimo xotirjam va tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir”.

Yuqoridagi berilgan ma’lumotlardan kelib chiqib yig’ilish hay’ati

**Qaror qiladi:**

1. Tadbir ishtirokchilari rektor maslahatchisi A.Jo’rayev, Sh.Akramov, M.Jabbarov hamda Sh.Axmedovlarning kun tartibidagi masalalar yuzasidan bergan axboroti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Fakultetning barcha akademik guruhlari o’rtasida “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Kebirxavfsizlikka qarshi kurash”, Psixofaol va psixotrop moddalarga qarshi kurash”, Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzularida ma’lumotlar berib borilsin.
3. Ushbu yig‘ilish qarori bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Yig’ilish raisi:** **A.Jo’rayev**

**Yig‘ilish kotibi:** **O.Kiyamov**

MATEMATIKA VA KOMPYUTER ILMLARI FAKULTETI

**Qarshi davlat universiteti Tibbiyot fakulteti "Universitetning Odob-axloq kodeksi hamda Ichki tartib qoidalarining mazmun-mohiyati" mavzusida tashkil etilgan davra suhbati**

**BAYONNOMASI**

**18.09.2025-yil** **Qarshi shahar**

**Qatnashdilar**:

1. Qarshi davlat universiteti rektor maslahatchisi - A.Jo'rayev
2. Unversitet profilaktika inspektori- M.Jabborov
3. Ma'naviy-marifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha bo'lim boshlig'i– Sh.Akramov
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi – Sh. Axmedov
5. Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i – N.Pardaqulov
6. Fakultetning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari – A.Jomurodov
7. Yoshlar bilan ishlash bo'limi tyutorlari: S.Eshtemirov, N.Ergasheva, L.Yakubova va F.Yo'ldoshev hamda 1-kurs talabalari. Jami: 218 nafar

**Kun tartibi:**

**"Universitetning Odob-axloq kodeksi hamda Ichki tartib qoidalarining mazmun-mohiyati" haqida**

Kun tartibidagi masala yuzasidan so'zga chiqqan rektor maslahatchisi A.Jo'rayev 1-kursga qabul qilingan talabalarni talabalik baxtiga sazovor bo'lganliklari hamda yangi o'quv yilini yangi binoda boshlayotganliklari bilan tabriklab, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarib, bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyo miqyosida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning tobora avjiga chiqishiga zamin yaratmoqda. Mana shunday bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni saqlashda ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.



Tadbir davomida rektor maslahatchisi A.Jo'rayev tomonidan universitetning **"Odob-axloq kodeksi hamda Ichki tartib qoidalari"** mazmun-mohiyati batafsil tushuntirildi. Jumladan **"Odob-axloq kodeksi"**dagi 3-bob, 10-modda, 4-bob 11.13.15.16.21.27-moddalari haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Ta'kidlanganidek, ushbu kodeksning asosiy vazifalari — oliygohda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, talaba va xodimlarda tashqi ko'rinish madaniyatini rivojlantirish, universitetning ta'lim tizimidagi va jamiyatdagi obru e'tiborini mustahkamlashdan iboratdir degan so'zlari muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlandi.

Universitet profilaktika inspektori M.Jabborov so'zga chiqdi:Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining hududi erkin va farovon yashashga moslashtirilgan,hamma o'z huquq

va erkinliklarini biladigan hudud hisoblanadi. Shu universitetda tahsil olayotgan har bir o'g'il-qiz odob-axloq qoidalariga, kiyinish intizomiga va barcha tartib-qoidalarga bo'sunishi shart. So'nggi kunlarda universitetda odob-axloq masalasiga doir bir nechta



shikoyat va holatlar ko'rib chiqildi. Odamlar salomatligi va farovonligiga yetkazilgan zarar, jamiyat va davlat hayotining iqtisodiy, madaniy va siyosiy asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini birlashtirishni, xalqaro-huquqiy choralarni ko'rishni talab qiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi bilan ushbu sohadagi hamkorlik ham o'zgarib bormoqda. Universitet hududida yurganda shaxsiy buyumlaringizga ehtiyot bo'lgan holda, o'z xatti-harakatlaringizni nazorat qilgan holda yurishingiz so'raladi. Bundan tahqari tartib-intizomga qat'iy rioya qilishlarini takrorlab o'taman. Universitet hududida tamaki mahsulotlari chekish qat'iyan man qilinadi. Mana shu holatlarda qo'lga tushadigan talabalarga tegishli intizomiy jazo choralari qo'llanadi.



Tadbir davomida Ma'naviy-marifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha bo'lim boshlig'i– SH.Akramov tomonidan so'zga chiqib Inson hayotda yashar ekan, yaxshilikka intilib, yomonlikdan qaytib yashashga harakat qiladi. Lekin "yaxshilik" va "yomonlik" tushunchalariga har kim har xil ta'rif beradi. Hayot ezgulik bilan go'zal. Ammo ba'zan ezgulikka yovuzlik ko'lanka soladi. Universitet tartib-qoidalari, hududda yurish va o'zini tutish,odob-axloq qoidalari haqida talabalarga takror-takror ogohlantirib o'tamiz. Talabarning davomati ,belgilangan formada kelishi doimo nazoratga olinadi. Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning kiyinish madaniyati, odob-axloqi va axloqiy sifatlarini yuksaltirish maqsadida ishlab chiqilgan ushbu kodeksga rioya etish barcha uchun muhim vazifa ekani qayd etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi Sh. Axmedov so'zga chiqib korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan. Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o'zi belgilaydi.

Shulardan kelib chiqib, 2017 yil 3 yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi.



Mazkur Qonuning 3-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga doir tushunchalarga ta'rif berilgan, ya'ni korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Mazkur Qonun o'z navbatida, fuqarolarga korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illatlari haqida ma'lumot beradi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i N.Pardaqulov 1-kursga qabul qilingan talabalarni talabalik baxtiga sazovor bo'lganliklari bilan tabriklab, o'tmishdan ma'lumki, har bir inson qalbida o'z yurtiga sadoqat, fidoiy bo'lish tuyg'usi vatanparvarlikning oliy nishonasi hisoblanadi. Zero, inson uchun eng aziz va muqaddas bo'lgan Vatanni himoya etish, uni sevish va e'zozlash har bir insondan buyuk ma'naviy jasoratni talab etadi. Inson ma'naviyatiga qarshi qaratilgan jaholat g'aflatga, loqaydlik esa beparvolikka giriftor etadi. Natijada, mazkur holat insonni vatan taqdiriga nisbatan daxldorlik tuyg'usini yo'qotish orqali uni ma'naviyatini so'ndirishga zamin yaratadi. Mazkur holat, o'z navbatida har qanday millat, xalqni o'z taqdiriga rahna soluvchi tahdidlarga nisbatan muntazam ogoh, sezgir va hushyor bo'lishga hamda ularga qarshi ma'rifat va ma'naviyat bilan javob berish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.



Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, yig'ilish

**Qaror qiladi:**

1. Qarshi davlat universiteti rektor maslahatchisi A.Jo'rayev hamda Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i N.Pardaqulovning kun tartibida qo'yilgan masalalar yuzasidan bergan axborotlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 1-kursga qabul qilingan talabalarni **"Universitetning Odob-axloq kodeksi hamda Ichki tartib qoidalari"**ning mazmun-mohiyati bilan batafsil tanishtirish vazifasi yoshlar bilan ishlash bo'limi tyutorlari zimmasiga yuklatilsin.

3. Ushbu qaror ijrosi bajarilishini nazorat qilishni fakultetning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari A.Jomurodov zimmasiga yuklatilsin.

**Yig'ilish raisi:** **A.Jo'rayev**

**Yig'ilish kotibi:** **A.Jomurodov**

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: XK97732901

**“Tasdiqlayman”**
**Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori**
**O.Kuziyev**

**2025 yil 23-sentabr kuni o‘tkazilgan yig‘ilishning**
**2 - sonli BAYONIDAN KO‘CHIRMA**

**Raislik kiluvchi: O.Kuziyev – Qarshi davlat universiteti rektori v.v.b**

**Qatnashganlar:** Rektor maslahatchisi A.Jo‘rayev, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi Sh.Axmedov, Qarshi shahar IIB boshlig‘i o‘rinbosari A.Shoimardonov bo‘lim boshliqlari, dekan o‘rinbosarlari va tyutorlar (ruyxat buyicha)

**KUN TARTIBI:**

**Qarshi davlat universitetida yosh xodimlarni tanlash, tayyorlash va tarbiyalash tizimini kuchaytirish choralarini ko‘rib borish, ular uchun huquqiy madaniyat, davlat xizmatidagi ma’suliyatini oshirish hamda talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan tyutorlar faoliyati to‘g‘risida ma’lumot**
**(O.Kuziyev, A. Jo‘rayev, N.Pardaqulov)**

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan universitet rektori v.v.b O.Kuziyev universitetda har bir ishga kirayotgan nomzod bilan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-ahloq kodeksi, universitet namunaviy ichki tartib qoidalari va korrupsion xolatlarni oldini olish borasidagi meyoriy hujjatlar to‘plami bilan tanishtirilib, ularning mazmun-mohiyati yetkazilib, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida xulosa berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan, shunga alohida tartibda e’tiborli bo‘lishlarini yana bir-bor eslatib o‘tmoqchiman bundan tashqari ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, talabalar turar joylarida olib borilayotgan ishlar (jihozlarni saqlanishi, umumiy foydalanish va yashash xonalaridagi holat), ijara xonadonlarini o‘rganish holati (joylashtirish, ijara shartnomasi, to‘lovlar, profilaktik tadbirlar), talabalarning davomat ko‘rsatkichlari, odob-axloq qoidalariga amal qilinishi, talabalarning kiyinish va muomala madaniyati, tyutorlarning mehnat va ijro intizomi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning sifatli tashkil etilishi holati, murojaatlar bilan ishlash va talabalar bandligini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi masalalar xususida so‘z yuritdi. O.Kuziyev o‘z so‘zi davomida tyutorlar uchun asosiy vazifalardan biri, ijarada yashaydigan talabalar holidan xabar olish, xonadon egalari bilan suhbatlar o‘tkazish, o‘rganishlar asnosida rahbariyatga takliflar kiritib borishlari lozimligi xaqida ta’kidlab o‘tdi. Shuningdek, har bir tyutor ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar bilan ishlashi, ularning dardiga quloq tutgan holda muammolariga yechim izlashi, talabalarning sha’ni va qadr-qimmatini, obro‘sini hurmat qilishi, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan doimiy xabardor bo‘lishi, o‘quv, ma’naviy va ilmiy



faoliyatini monitoring qilib borish muhimligini qayd etdi. Tashabbuskor va fidoyi ish olib borayotgan tyutorlar rag'batlantirilishini alohida e'tirof etdi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinayotgan maqola va fikrlarga o'z fikrlari bilan ishtirok etishlari yuzasidan zarur tavsiya va tushuntirishlar berdi.

Universitet rektori v.v.b O.Kuziyev sentabr oyidan "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida sport musobaqalariga start berilganligi sababli 5tashabbus.uz (https://5tashabbus.uz/) saytidan talabalar yoshiga mos sport musobaqasidan tyutorlar o'ziga biriktirilgan talabalarni 100 foiz ro'yxatdan o'tishi va olimpiadada ishtirok etishini tashkil etishi bo'yicha topshiriqlar berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i N.Pardaqulov Qarshi davlat universiteti tyutorlarining 2024-2025-o'quv yilidagi faoliyati samaradorligi bo'yicha ayrim tyutorlarning o'z faoliyatlarida yo'l qo'ygan kamchiliklarini tahlil ma'lumot o'qib eshittirildi, shuningdek, o'tgan o'quv yilida 40 nafar tyutorlar ishdan ajralmagan holatda onlayn shaklda malakasini oshirish kursiga ishtirok etishgani, mazkur malaka oshirish kursidan 28 nafar tyutorlar muvoffaqiyatli o'qishib malaka oshirilganlik to'g'risidagi sertifikatga ega bo'lishgani, Shuningdek, 12 nafar tyutorlar malaka oshirish kursi yakunlari bo'yicha imtihondan o'tisholmaganliklari sababli qayta o'qishga tavsiya etilgani xususida aytib o'tdi. N.Pardaqulov o'z so'zida Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 10 martdagi 149-sonli qarori ijrosi yuzasidan tyutorlar tomonidan grantlarni qayta taqsimlashga ariza berish bo'yicha talabalarga ijtimoiy faollik mezonlari va qanaqa turdagi asoslantiruvchi hujjatlar veb saytga yuklashlarini hozirdan targ'ibot orqali tushuntirishlar olib borilishini, tyutor guruhlaridagi talabalarning ma'lumotlar bazasini yaratish va talabalar turar joyi, ijara, yaqin qarindoshi va o'z uyida istiqomat qiluvchi talabalaning yashash sharoitidan doimiy xabardor bo'lishi maqsadida grafikga muvofiq joriy yilning 25 sentabr kunidan boshlab universitet profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi bilan hamkorlikda ijara va yaqin qarindoshinikida yashovchilarning yashash manzillarida o'rganishlar olib-borib o'rganishlar natijasi bo'yicha universitet rahbariyatiga fotoalbom va hisobotlar topshirishi bo'yicha tavsiyalar berib o'tdi.



Shuningdek, tyutorlar talaba-yoshlarni darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli tanlovlar va musobaqalar tashkil etish maqsadida universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashga oid, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etib, ushbu tadbirlarga universitetda tahsil olayotgan barcha talabalarning faol ishtirokini ta'minlash zarur ekani xaqida so'z yuritdi va bunda ayrim tyutorlarning talabalarni bo'sh vaqtlarini



mazmunli o'tkazishga qaratilgan turli tadbirlarni o'tkazish va OAVlarda yoritib borishga mas'uliyati va shaxsiy tashabbuskorligi sezilmayotganligini ham aytib o'tdi.

Yig'ilishda rektor maslahatchisi A.Jo'rayev ham so'zga chiqib, tyutorlarga talabalarning kiyinish madaniyati, ularning odob-axloq qoidalariga va ichki tartib-intizomga rioya etishlarini nazoratga olish, xulqi og'ir talabalar bilan individual tarzda ishlash vazifalari belgilab berilgani, bu vazifani amalga oshirishda dekanlar, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari va tyutorlar tomonidan sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, talabalar ishtirokida turli huquqbuzarlik va tartibbuzarlik holatlari sodir etilgani, jinoyat sodir etgan talabalarga ko'rilgan choralardan har bir tyutor xulosa chiqarib, o'ziga biriktirilgan guruh talabalarini yurish-turishini, o'zini tutishi, darslarga kelishi holati yoki darslarni sababsiz qoldirish holatlarini sinchkovlik bilan ko'zatib borishni, ular bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazib, shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka moyilligini barvaqt aniqlab universitet rahbariyatini ogohlantirishi zarur ekanligi to'g'risida tushunchalar berib o'tdi.

Shuningdek, A.Jurayev korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha to'xtalib o'tdi. "Ma'rifat darslarida"da talaba-yoshlarga tyutorlar va tegishli bo'limlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati, jamiyatimiz taraqqiyotiga tahdidi to'g'risida bilim va ma'lumotlar berib borilishi, talaba yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatidan xabardorlik darajasini aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazililishi, Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari ishtirokida "Korrupsiya rivojlanishimizga to'siq" mavzusida davra suhbati, talabalar turar-joylarida istiqomat qiluvchi talaba-yoshlar ishtirokida "Korrupsiyasiz hayot sari!" mavzusida debat va bahs-munozara kechalari tashkil etish to'g'risida tushuncha berdi.

Universitet profilaktika inspektori M.Jabbarov ham yig'ilishda o'z nutqi bilan ishtirok etib, Qarshi davlat universitetida huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida ham turli tadbirlar va suhbatlar ham tashkil etilishi to'g'risida so'z yuritidi hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma'muriy kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Qonuni Davlat Fuqarolik xizmati to'g'risida moddalardan qisqacha ma'lumot berildi. O'RQ 788-son Qarorining 5-moddasi Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari.

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi; qonuniylik; adolatlilik; xalqqa xizmat qilish; davlat organlarining va mansabdor shaxslarning jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'ulligi; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; xolislik, professionallik va kompetentlik; davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning teng huquqliligi; davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish.

Davlat xizmatchilariga oid jinoiy javobgarlik turlari:

Jinoyat Kodeksining 205-modda. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, 206-modda. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish 207-modda. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash 209-modda. Mansab soxtakorligi, 210-pora olish, 211-pora berish, 212-modda. Pora olish-berishda vositachilik qilish, 213-modda. Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi

boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish moddalarini tushintirib o'tildi.

Universitet fakultetlarida erta turmush, uning salbiy oqibatlari, OIB va OITS, narkomaniya, psixotrop vositalar va uning salbiy oqibatlari, zo'ravonlik, yoshlar o'rtasida tovlamachilik, huquqbuzarlik kabi masalalar bo'yicha turli tadbirlar va davra suhbatlari o'tkazish, tadbirlar manfaatdor idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilishi to'g'risida to'xtalib o'tdi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, yig'ilish

**QAROR QILADI:**

1. Universitet rektori v.v.b O.Kuziyev, rektor maslahatchisi A.Jo'rayev, Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i N.Pardaqulov, universitet profilaktika inspektori M.Jabbarovlarning ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish borasidagi axborotlari ma'lumot uchun, bergan topshiriqlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar bilan ishlash bo'limi, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari va tyutorlarga:

- Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 10 martdagi 149-sonli qarori ijrosi yuzasidan grantlarni qayta taqsimlashga ariza berish bo'yicha talabgor talabalarga ijtimoiy faollik mezonlari va asoslantiruvchi hujjatlarni veb saytga yuklashlari bo'yicha hozirdan targ'ibot orqali tushuntirish ishlarini olib borish;
- talabalar turar joylaridagi talabalar bilan tushuntirish olib borish, ijara xonadonlari holatini o'rganish, talabalarning davomat ko'rsatkichlari, odob-axloq qoidalariga amal qilish, kiyinish va muomala madaniyati, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi masalalari yuzasidan tyutorlar faoliyatini o'rganish;
- talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida Talabalar turar joylarida va fakultetda (ijarada va o'z uyida yashovchi talabalarni qamrab olgan holda) madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari va uchrashuvlarni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish hamda tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

3. Ushbu yig'ilish qarori ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.